O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 25 - iyul 236-11-0-Q/23 Farg‘ona viloyati hokimligi

Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetining 2024-yil uchun byudjet so‘rovi va 2025-2026-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzish va uni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish chora-tadbirlari haqida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 90-94-moddalariga muvofiq Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetining 2024-yil uchun byudjet so‘rovi va 2025-2026-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzish va uni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etilishini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 85-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2024-2026-yillar uchun Davlat byudjeti loyihasini shakllantirish uchun ishlab chiqilgan O‘rta muddatli byudjetni tayyorlash bo‘yicha yagona uslubiy qo‘llanma ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 90^2-moddasiga muvofiq, Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetining 2024-yilgi mahalliy byudjetlariga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning cheklangan miqdori hamda obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar bo‘yicha xarajatlarning cheklangan miqdori O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan yetkazilishi ko‘zda tutilganligi inobatga olinsin.

3. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev)ga:

bir ish kunida 2024-yil uchun byudjet so‘rovi va 2025-2026 yillar uchun

byudjet mo‘ljallarini tuzish tartibini shahar va tumanlar mahalliy byudjetlari loyihalarini tayyorlash uchun - barcha shahar va tumanlar hokimliklariga hamda hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga;

uch ish kunida shahar va tumanlar hokimliklariga viloyatning viloyat byudjetidan ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning cheklangan miqdorlarini hamda viloyatning viloyat byudjetidan moliyalashtiriladigan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga - kelgusi moliya yili uchun ajratiladigan byudjet mablag‘larining cheklangan miqdorlarini yetkazilishini ta’minlasin.

4. Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetining 2024-yil uchun byudjet so‘rovi va 2025-2026 yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzish va uni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat Ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda – Ishchi guruhi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Barcha shahar va tumanlar hokimlari:

Viloyatning viloyat byudjetidan ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning cheklangan miqdorlarini olganidan keyin ikki ish kuni ichida tegishli byudjetlarning byudjet so‘rovlarini tuzish hamda ularni taqdim etish muddatlarini belgilash to‘g‘risida qarorlar qabul qilish.

shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2024-yil uchun byudjet so‘rovi va 2025-2026-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tegishli Iqtisodiyot va moliya bo‘limlari tomonidan viloyat boshqarmasiga 2-ilovaga muvofiq belgilangan muddatlarda taqdim etilishini ta’minlasinlar.

6. Viloyatning viloyat byudjetidan mablag‘ oluvchi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar tomonidan 2024-yil uchun byudjet so‘rovi va 2025-2026-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish muddatlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Viloyat Ishchi guruhi Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetining 2023-yil uchun byudjet so‘rovi va 2024-2025-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzishda:

xarajatlar bo‘yicha – viloyat, shahar va tumanlar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning byudjet so‘rovlari hamda shahar va tumanlar byudjetlarining loyihalari, shuningdek viloyat byudjetidan moliyalashtiriladigan ayrim tadbirlar uchun xarajatlarning prognoz qilinayotgan hajmi asosida ishlab chiqilishini;

viloyat mahalliy byudjeti loyihasini taqchillik bilan ishlab chiqishga yo‘l qo‘yilmasligini nazarda tutsin.

8. Farg‘ona viloyati Davlat soliq boshqarmasi (A.Tillavoldiyev) shahar va tumanlar bo‘yicha 2023-yil uchun Farg‘ona viloyatining byudjet daromadlari prognozini ishlab chiqishda:

Davlat byudjetiga kiritiladigan daromadlar prognoziga doir takliflar hamda davlat soliq organlari va hokimliklarning boshqarmalari (bo‘limlari), viloyat, shahar va tumanlar boshqaruvi organlarining bo‘linmalari tomonidan ma’muriy-hududiy birlik iqtisodiyotini rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoziga muvofiq taqdim etiladigan boshqa axborot asosida shahar va tumanlar hamda soliq turlari kesimida ishlab chiqib, viloyat hokimligiga joriy yilning 26-iyul kuniga qadar taqdim etilishini ta’minlasin.

9. Farg‘ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev) Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetining 2024-yil uchun byudjet so‘rovi va 2025-2026-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini joriy yilning 1-avgust kuniga qadar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etilishini ta’minlasin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X.Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 25-iyuldagi
236-11-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona viloyati mahalliy byudjetining 2024-yil uchun byudjet so‘rovi va 2025-2026-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tuzish va uni O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha viloyat Ishchi guruhi

T A R K I B I*

1.	M.Saydullayev	-	Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari kotibiyati mudiri, ishchi guruh rahbari
2.	Z.Ro‘zaliyev	-	viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i, ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari
3.	A.Tillavoldiyev	-	viloyat Davlat soliq boshqarmasi boshlig‘i, ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari

Ishchi guruhi a’zolari:

4.	Sh.Dolimov	-	viloyat Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i;
5.	A.Tuxtaqulov	-	viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i;
6.	A.Abdullayev	-	viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i;
7.	J.Tojibayev	-	viloyat Madaniyat va turizm boshqarmasi boshlig‘i;
8.	N.Xakimov	-	Viloyat Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi;
9.	F.Tursunov	-	Sirdaryo-So‘x irigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi boshlig‘i;
10	T.Mamasiddiqov	-	Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, ishchi guruhi kotibi

***** Ishchi guruhi a’zolari boshqa ishga o‘tgan hollarda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoxud ushbu lavozim vazifalarini bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 25-iyuldagi
236-11-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Barcha shahar va tumanlar mahalliy byudjetlarining 2024-yil uchun byudjet so‘rovi va 2025-2026-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini tegishli tuman(shahar)lar Iqtisodiyot va moliya bo‘limlari tomonidan viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish

MUDDATLARI

1.	Farg‘ona shahar	-	2023-yil 28-iyul
2.	Qo‘qon shahar	-	2023-yil 28-iyul
3.	Quvasoy shahar	-	2023-yil 25-iyul
4.	Marg‘ilon shahar	-	2023-yil 25-iyul
5.	Oltiariq tumani	-	2023 yil 25 iyul
6.	Bog‘dod tumani	-	2023-yil 26-iyul
7.	Buvayda tumani	-	2023-yil 26-iyul
8.	Beshariq tumani	-	2023-yil 28-iyul
9.	Quva tumani	-	2023-yil 26-iyul
10.	Uchko‘prik tumani	-	2023-yil 26-iyul
11.	Rishton tumani	-	2023-yil 26-iyul
12.	So‘x tumani	-	2023-yil 25-iyul
13.	Toshloq tumani	-	2023-yil 25-iyul
14.	O‘zbekiston tumani	-	2023-yil 28-iyul
15.	Farg‘ona tumani	-	2023-yil 27-iyul
16.	Dang‘ara tumani	-	2023-yil 27-iyul
17.	Furqat tumani	-	2023-yil 27-iyul
18.	Yozyovon tumani	-	2023-yil 27-iyul
19.	Qo‘shtepa tumani	-	2023-yil 27-iyul

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 25-iyuldagi
236-11-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

Viloyatning viloyat byudjetidan mablag‘ oluvchi hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar tomonidan 2024-yil uchun byudjet so‘rovi va 2025-2026-yillar uchun byudjet mo‘ljallarini Farg‘ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasiga taqdim etish

MUDDATLARI

1.	Farg‘ona viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi	-	25-28-iyul
2.	Farg‘ona viloyati Sog‘liqni saqlash boshqarmasi	-	25-28 iyul
3.	Farg‘ona viloyati Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi	-	25-28-iyul
4.	Farg‘ona viloyati Madaniyat va turizm boshqarmasi	-	25-28-iyul
5.	Farg‘ona viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish boshqarmasi	-	25-28-iyul
6.	Farg‘ona viloyati Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi	-	25-28-iyul
7.	Farg‘ona viloyati Irigatsiya tizimlari havza boshqarmasi	-	25-28-iyul
8.	Farg‘ona viloyati Transport boshqarmasi	-	25-28-iyul
9.	Farg‘ona viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining hududiy boshqarmasi	-	25-28-iyul
10.	Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi	-	25-28-iyul
11.	Farg‘ona viloyati O‘rmon xo‘jaligi boshqarmasi	-	25-28-iyul
12.	Farg‘ona viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi	-	25-28-iyul
13.	Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining Farg‘ona viloyat bshqarmasi	-	25-28-iyul
14.	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi	-	25-28-iyul
15.	Farg‘ona viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi	-	25-28-iyul
16.	Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi	-	25-28-iyul
17.	Farg‘ona viloyati Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi	-	25-28-iyul
18.	Farg‘ona viloyati Adliya boshqarmasi	-	25-28-iyul

19.	Farg‘ona viloyati hokimligi	-	25-28-iyul
20.	Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi	-	25-28 iyul
21.	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi	-	25-28-iyul
22.	Farg‘ona viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	-	25-28-iyul
23.	Farg‘ona viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi	-	25-28-iyul
24.	Byudjetdan tashkari Pensiya jamg‘armasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi	-	25-28 iyul
25.	Farg‘ona viloyati O‘zarxiv boshqarmasi	-	25-28-iyul
26.	Farg‘ona viloyati Ma’naviyat va ma’rifat markazi	-	25-28-iyul
27.	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi	-	25-28-iyul
28.	O‘zbekiston Respublikasi Pillachilik va qorako‘lchilik rivojlantirish qo‘mitasining Farg‘ona viloyati hududiy bo‘limi	-	25-28-iyul
29.	O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi Farg‘ona viloyati bo‘limi	-	25-28-iyul
30.	O‘zbekiston Respublikasi Kinematografiya agentligi Farg‘ona viloyati bo‘limi	-	25-28-iyul
31.	Farg‘ona viloyati Mudofaa ishlari boshqarmasi	-	25-28-iyul
32.	Farg‘ona viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasi	-	25-28-iyul
33.	Boshqa tashkilotlar	-	25-28-iyul